ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№9
2025

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 258 sahifa,*
*2-sentyabr, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni ........ 14
**Ibragimova Gulsanam Nematovna**

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri ..... 22
**Abduyev Sheroz**

Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish ........ 25
**Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li**

Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili ........ 30
**Bobojonova Zarina Rashidovna**

Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish ........ 34
**Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna**

Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi ........ 38
**Jumayeva Sadbarg Mirolimovna**

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili ........ 42
**Karimova Moxichehra Rixsibayevna**

Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi ........ 46
**Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi**

TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish ........ 50
**Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi**

Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 53
**Raximberganova Munojat Muzaffar qizi**

Structure of Social Conflict and Stages of its Development ........ 57
**Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish ........ 60
**Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi**

Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby ........ 64
**Alimbayeva Shaxlo Tursunovna**

Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati ........ 69
**Avazov G'oyibnazar Berdiyevich**

Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish ........ 72
**Baratova Yulduz Asadullayevna**

Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati ........ 76
**Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi**

Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish ........ 80
**Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi**

Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari ........ 84
**O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi**

IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ........ 90
**Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna**

Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan ........ 98
**Imomov I., Umirova D.**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari ........ 104
**Iskandarova Munisa Bahodir qizi**

Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetentsiyasini rivojlantirish ........ 107
**Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna**

Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari .............110
**Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz**

Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.................113
**Mustafayeva Nilufar Ulashovna**

Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish ................117
**Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi**

Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari ..........................................................................121
**Quronova Ismigul Xolmurod qizi**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.................................................................126
**Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi**

Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari ...................................................131
**Sanayeva Surayyo Bobonazarovna**

"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari...................................................................................................139
**Shukurova Sevara Ilhomovna**

Improving High Jump Techniques ...........................................................................................................143
**Tajimbetov Anvar Tengelbayevich**

Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari...........................................146
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.......................................149
**Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи**

Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта ..........................................................................152
**Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari......................157
**Abduvaxobova Nodira**

Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari ............................................................160
**Ismailova Nozima Umaraliyevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati..........................................................................................................164
**Utanbayeva Dildora Abdixadirovna**

Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish ....168
**Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li**

Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari .................171
**To'raqulov Akbar Rustam o'g'li**

Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida .......................................................................175
**Temirova Muyassar Abdukarim qizi**

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish .............180
**Raximova Surayyo Otabek qizi**

Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash .........................................183
**Biysenov Temirbek Taumuratovich**

Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati...............................................................................................................188
**Choriyeva Surayyo Choriyevna**

Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education ..................192
**Davidova Sayyora Sirojiddin kizi**

Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari...........................................................................................................................196
**Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna**

Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish.............................................201
**G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich**

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati.....206
**Isayeva Mushtariy Alisher qizi**

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari .......210
**Mannanova Nargiza Xaydarovna**

Ingliz tilini oʻrgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari ........................................215
**Masharipova Kumushoy Amin qizi**

The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....218
**Mavlonova Dildora Shukhrat kizi**

Tasviriy san'at mashgʻulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish ......................................................222
**N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova**

Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...226
**Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich**

The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture ........................................230
**Rajabova Shaxlo Shodmonovna**

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati ..........................................................................................................234
**Ramazonova Salomat Saidovna**

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash ............................238
**Saidova Gulruh Halim qizi**

Oʻzbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Fargʻona vodiysi misolida)..........................................................................................................242
**Turgʻunboeva Azizaxon Gʻulomovna**

Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников ...............................................246
**Истамова Нигора Азимжановна**

Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ..................249
**Xakimova Dildora Mashrabjonovna**

Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов ....................253
**Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Isayeva Mushtariy Alisher qizi
Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti,
Defektologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada o'yin faoliyatining shaxsiy sifatlarni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. O'yin faoliyati orqali bola ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, nutqini rivojlantiradi, xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi hamda guruhiy munosabatlarda faol ishtirok etishni o'rganadi. Shuningdek, psixologik o'yinlarning bosqichlari, tanishuv va muloqot o'yinlarining tarbiyaviy jihatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari hamda shaxsiy sifatlar – mustaqillik, mehnatsevarlik, ijodkorlik va liderlikni rivojlantirishdagi roli alohida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** o'yin faoliyati, shaxsiy sifatlar, psixologik o'yinlar, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, muloqot, mustaqillik, mehnatsevarlik, liderlik.

**Abstract:** The article highlights the role and significance of play activities in shaping children's personal qualities. Through play, a child acquires social experience, develops speech, forms behavioral norms, and learns to participate actively in group interactions. The stages of psychological games as well as the educational aspects of introductory and communication games are analyzed. Special attention is given to the specific features of play activities among preschool and early school-age children and their role in developing personal qualities such as independence, diligence, creativity, and leadership.

**Key words:** play activity, personal qualities, psychological games, preschool age, early school age, communication, independence, diligence, leadership.

**Аннотация:** В статье раскрываются роль и значение игровой деятельности в формировании личностных качеств. Посредством игровой деятельности ребенок осваивает социальный опыт, развивает речь, формирует нормы поведения и учится активно участвовать в групповых отношениях. Анализируются этапы психологических игр, воспитательные аспекты игр на знакомство и общение. Особое внимание уделяется особенностям игровой деятельности детей дошкольного и младшего школьного возраста, а также ее роли в развитии таких личностных качеств, как самостоятельность, трудолюбие, креативность и лидерство.

**Ключевые слова:** игровая деятельность, личностные качества, психологическая игра, дошкольный возраст, младший школьный возраст, общение, самостоятельность, трудолюбие, лидерство.

## KIRISH

Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola, yuqorida batafsil ko'rsatib o'tilganidek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

O'yin faoliyatida olib boriladigan guruhlar uchun umumiy bo'lgan 6 ta jarayonni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Hissiyotlarni ifodalash yengil kechadi.
2. Guruhga taalluqlilik hissi tug'iladi.
3. O'zini-o'zi namoyon qilishga mas'ullik sezadi.
4. Xulq-atvorning yangi ko'rinishlarini o'zlashtiradi.
5. Shaxslararo munosabatlarni solishtirishda guruh bilan birga xulosa chiqaradi.
6. Guruhni boshqarishda ma'lum bir liderlik xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi.

Turli xil muammolarni hal qilishda oʻyin va mashqlar samarali natijalarga erishishga turtki boʻlishi mumkin.

Shuni alohida qayd etish lozimki, oʻyin jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish ham oʻyin jarayonini boshqaruvchi psixologiyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqazo etadi. Shuning uchun psixologiyada bunday oʻyinlar psixologik oʻyinlar deb ataladi.

Har qanday psixologik oʻyinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Guruhni tashkil etish yoki yigʻish bosqichi.
2. Boshlangʻich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulgʻayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofdagi narsa va hodisalar boʻyicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati – oʻyindir. Bu yoshdagi bolalarning oʻyinlarini uchga boʻlish mumkin:

1. Predmetli oʻyinlar (15–20 minut oʻynaladi).
2. Syujetli-rolli oʻyinlar (30–60 minut oʻynaladi).
3. Qoidali oʻyinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin).

Bogʻcha yoshidagi bolalarning oʻyin faoliyati masalasi asrlar davomida juda koʻp olimlarning diqqatini oʻziga jalb qilib kelmoqda. Bogʻcha yoshidagi bolalar oʻzlarining oʻyin faoliyatida ildam qadamlar bilan olgʻa qarab, sermazmun hayotimizning barcha tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda boʻlishga intiladi. Bu oʻrinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi oʻzining haddi sigʻadigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub boʻlgan, oʻzining kuchi yetmaydigan, haddi sigʻmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda boʻlishga intiladi.

Yuqorida maktabgacha yoshdagi bolalar oʻyin faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari haqida toʻxtalib oʻtgan boʻlsak, endi kichik maktab yoshi bolalar oʻyin faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari haqida suhbatlashamiz. Bu yoshdagi bolalarni maktab dasturiga kiritilmagan juda koʻp atrof-muhit hodisalari haqidagi bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning koʻpincha e'tiborga olinmaydigan ijodiy oʻyinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon boʻladi. Bunday oʻyinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yetakchi boʻlgan oʻquv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar – oʻyin, muloqot va mehnat faoliyati ham oʻquvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Shuningdek, bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bogʻliq boʻlgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. Oʻquv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda oʻqishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida oʻz oʻrniga ega boʻlishiga imkoniyat yaratadi. Aynan ana shu oʻrin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi oʻqish uchun harakat qilishi mumkin.

Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda oʻzlari erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi boʻlish nihoyatda muhim. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim jarayonini olib borishda oʻyin faoliyatining musobaqa shakli samarali hisoblanadi.

Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zoʻriqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogʻcha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek, oʻsmirlik davrida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va baholariga qarab oʻzlariga oʻzlari baho beradilar. Oʻquvchining oʻziga-oʻzi beradigan bahosi asosan toʻgʻridan-toʻgʻri oʻqituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bogʻliq boʻladi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda oʻz-oʻziga beradigan baholar turlicha: yuqori, adekvat yoki past boʻlishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud boʻlgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlar ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga keltirish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda mehnatsevarlik asosan oʻqish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada oʻz qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bogʻliq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli boʻlsa, unda asta-sekinlik bilan boʻysinuvchanlik, mustaqil boʻla olmaslik xususiyati

mustahkamlanib boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikka undash unda quloqsizlik, yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taqlid qilgan holda oʻzlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni koʻproq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir.

Shuningdek, shunday bir ijtimoiy-psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron-bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola oʻzini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil boʻlishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Bu yoshdagi bolalarda ham oʻyinga kirishish jarayoni oʻzgacha kechadi. Shuni hisobga olgan holda bola quyidagilarga amal qilishi kerak:

- **Faollik:** ya'ni guruhning har bir a'zosi bajariladigan mashgʻulotlarda oʻz faolligini namoyon etishi lozim.
- Bundan tashqari, oʻyin jarayonini boshqaruvchi inson tomonidan guruh ishtirokchilariga nisbatan quyidagilar alohida ta'kidlab oʻtilishi shart:
- Birovning fikrini umuman notoʻgʻri deb hisoblagan yoki unga qoʻshilmagan taqdirda ham uni toʻxtatib qoʻyish yoki ustidan kulish mumkin emas.
- Ishtirokchilar bir-birini masxaralashi yoki gʻururiga tegadigan gaplar aytishi mumkin emas.
- Ishtirokchilar ham, boshlovchi ham, agar savol uning shaxsiy hayotiga tegishli boʻlsa, javob bermasliklari mumkin.
- Boshlovchiga savollar va fikrlar anonim tarzda berilish imkoniyati yaratilishi shart. Lekin bu haddan tashqari chegaradan chiqish imkonini bermasligi, ya'ni boshlovchining shaxsiyatiga tegish kabilarga yoʻl qoʻyilmasligi ta'minlanishi kerak.

Shu narsa muhimki, har bir bolaning fikrini albatta eshitish, nima uchun bu tamoyilga hayrixohligi yoki noroziligini izohlashini soʻrash lozim. Tamoyillarni tasdiqlashni qayd qilishi kerak emas. Chunki agar kimdir guruhning fikriga norozi boʻlsa, uni koʻndirishga harakat qilish yoki guruh boshqa qarorga kelishi lozim boʻladi. Uning fikrini inobatga olmaslik esa guruhdagi psixologik iqlimga salbiy ta'sir etishi aniq. Ya'ni fikri inobatga olinmagan ishtirokchida norozilik holati paydo boʻladi va bu uning oʻyin jarayonidagi butun ishtiroki davomida noroziligini namoyon qilib, qolganlarga xalaqit berishi mumkin. Bundan tashqari, agar bu shaxs oʻzini past baholovchi shaxs boʻlsa, unda ruhiy tushkunlik, oʻz-oʻzini baholashning pasayishi va boshqalar ham paydo boʻlish ehtimoli mavjud.

**Tanishuv bosqichini tashkil etish:** Oʻyin jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri – guruh a'zolarining bir-biri bilan va oʻyin jarayonini boshqaruvchi shaxs bilan tanishuv bosqichidir. Bu bosqich boshqaruvchi tomonidan taklif etiladigan turli xil oʻyinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, tanishuvni turli xil usulda tashkil etish mumkin, lekin tanishuv bosqichining mohiyati bitta boʻlib, har bir ishtirokchi oʻzini bu yerda qanday tanishlarini yoki uni qanday nom bilan atashlarini istasa, oʻzini shunday tanishtirishi mumkin.

Bu bosqichni oʻqituvchi va ishtirokchilar shunchaki bir-birlarining ismini bilish bilan bogʻliq boʻlgan rasmiyatchilik deb qabul qilmasligi kerak. Ishtirokchilarning tanishuv bosqichi ularning oʻtkazilayotgan mashgʻulotga va ayni paytdagi muhitga moslashish jarayoni boʻlib, ulardagi hayajon va noqulaylik holatlarini bartaraf etishning eng qulay va samarali yoʻlidir.

Mashgʻulot avvalida oʻqituvchi oʻzini guruhga tanishtirib, oʻzi haqidagi ba'zi ma'lumotlarni (yoqtirgan rangi, qiziqishlari va hokazo) aytadi. Oʻqituvchi haqida ishtirokchilarda paydo boʻlgan ilk tasavvur keyingi ishlar natijalariga, oʻqituvchi va guruh a'zolari oʻrtasidagi munosabatlar xarakteriga hamda, albatta, mashgʻulotning yakuniga va samaradorligiga ta'sir koʻrsatadi.

Tanishuvda ishtirokchilar doira yoki boshqa shakllarda turishlari mumkin. Tanishuv bosqichini tashkil qilish uchun juda koʻplab oʻyinlar mavjud boʻlsa-da, umumiy oʻyin jarayonlarida quyidagi uch xil tanishuv usullari mavjud:

1. **Intervyu usuli.** Bunda ishtirokchilar oʻqituvchi tomonidan juftliklarga boʻlib chiqiladi. Juftliklar bir-birlaridan intervyu oladilar. Buning uchun ularga 10–15 daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt davomida ular bir-birlaridan har qanday ma'lumotlarni soʻrashlari mumkin. Savollar oʻqituvchi tomonidan tayyorlab berilishi yoki ishtirokchilarning oʻz ixtiyoriga havola etilishi mumkin. Sheriklar bir-birlari haqida ma'lumot toʻplab boʻlgach, har bir juftlik navbat bilan maxsus joyga taklif qilinadi va har bir ishtirokchi oʻzining sherigini guruh a'zolariga imkon qadar batafsil tanishtiradi.
2. **Videoyozuv usuli.** Oʻqituvchi tomonidan har bir ishtirokchi alohida jihozlangan xonaga chaqiriladi va u guruh a'zolariga oʻzi haqida aytib bermoqchi boʻlgan ma'lumotlarni gapiradi. Barcha ishtirokchilar oʻzi haqidagi ma'lumotlarni videotasmaga yozib boʻlgach, hammasi xonaga taklif etiladi va tasma yozuvi birgalikda tomosha qilinadi.

3. **Kartochkalar usuli.** Har bir ishtirokchi o'qituvchi tomonidan tarqatilgan maxsus kartochkaga o'zi haqidagi ma'lumotlarni yozadi. Kartochkalarni hamma o'z oldiga qo'yishi yoki orqasiga suyab qo'yishi mumkin. So'ngra ishtirokchilar bir-birining kartochkasini o'qib, o'zaro tanishadilar.

Tanishuv bosqichida ishtirokchilar bir-birlarining ismlarini bilish bilan birga, har bir ishtirokchi o'z ismi va hayotidagi o'rni haqida o'ylab ko'rib, buni ovoz chiqarib aytish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Qor uyumi" o'yini orqali tashkil etiladigan mashg'ulotlarda ishtirokchilar yonidagi sherigining aytganini takrorlaydilar. Bu eshitish qobiliyatini, ayniqsa, oldingi ishtirokchini diqqat bilan tinglashni rivojlantirish imkonini beradi. Ko'pchilik ishtirokchilar oldingi ishtirokchi nima deganini eshitmaydi, chunki u o'zi nima deyishi kerakligi haqida o'ylaydi. Muhokama vaqtida o'qituvchi ishtirokchidan "Diqqat markazida" bo'lganda o'zini qanday his qilganini so'raydi.

Ko'pincha tanishuv jarayonidagi o'yinlarda ishtirokchilardan ismni aytish bilan birga, muloqotga kirishishga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi jihatlarini ham aytib o'tish so'raladi. Bu o'qituvchi uchun har bir ishtirokchining individual xususiyatlarini bilishda yordam beradi.

### Kutishlarni aniqlash bosqichi

Mashg'ulotga kelgan har bir ishtirokchi o'z muammosining hal qilinishini kutadi. Shu sababli guruh a'zolaridan o'yindan nimalar kutayotganliklari so'raladi. O'qituvchi ularning kutishlarini bilib, shunga qarab dasturga o'zgartirishlar kiritishi va ishlarni rejalashtirishi mumkin.

Kutishlarni aniqlash bosqichida guruh a'zolari aylana bo'ylab o'tirib, o'qituvchidan nimalar kutayotganliklarini, ularni xavotirga solayotgan holatlar yoki yoqmayotgan jihatlar yuzasidan e'tirozlarini aytadilar. O'qituvchi barcha ishtirokchilarning fikrlarini ularga baho bermasdan, muhokama qilmasdan va hayrixohlik bilan eshitishi, har bir ishtirokchiga minnatdorchilik bildirishni unutmashi lozim.

### Shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish o'yinlari

Shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun tashkil etiladigan o'yinlarning asosiy maqsadi – muloqot jarayonida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni yechishga o'rgatishdan iboratdir.

Bunday o'yinlar ishtirokchilarga quyidagilarni beradi:

### O'yinlarning ishtirokchilarga ta'siri

1. Guruh a'zolarining har birida kuzatuvchanlikning oshishiga olib keladi.
2. Muloqotga kirishayotgan sherigining verbal va noverbal muloqotidagi farqni ajrata bilishga o'rgatadi. Ya'ni ishtirokchilar muloqotdagi sherigining so'zlari bilan mos kelmayotgan xatti-harakati, holati, imo-ishoralarini o'qiy bilishga va ularni tahlil qilishga o'rganadilar.
3. Turli xil vaziyatlarda suhbatdoshi bilan muloqotga kirisha olish yo'llarini o'rganadi.
4. Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq-atvorini me'yorida ushlab turishga o'rgatadi.
5. Muloqot jarayonida boshqalarni, o'zini, shuningdek, odamlar orasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
6. Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonini tezlashtiradi.
7. O'zi va suhbatdoshining emotsional holatini solishtirishga, o'zidagi emotsional zo'riqishni pasaytirishga o'rgatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'yin faoliyati shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhim vositadir. U nafaqat bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qiladi, balki uning ijtimoiylashuvi, emotsional rivoji va irodaviy sifatlarini shakllantirishga ham katta hissa qo'shadi.

Maktabgacha yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat sifatida shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi uchun asos yaratadi. Kichik maktab yoshida esa o'yin faoliyatining musobaqa shakli muvaffaqiyatga intilish, o'z-o'zini baholash va liderlikni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik o'yinlar orqali bolalar o'zini erkin namoyon qilish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, nizoli vaziyatlarni hal etish va o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib, o'yin faoliyati shaxs tarbiyasida ta'lim va tarbiya bilan uzviy bog'liq holda qaralishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov A. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
2. Jo'rayev N. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
3. To'xtayeva Sh. Pedagogik psixologiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
4. Xolboyeva G'. M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №9**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.